

GENDER ROLLARINING O‘ZBEK OILASIDAGI AN’ANAVIY TALQINI.

Afzalov Humoyun Sharifjon o‘g‘li

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Mahmudov Muslimbek Zohidjon o‘g‘li

Farg’ona Davlat Universiteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya Ushbu tadqiqotda gender rollarining o‘zbek oilasidagi an’anaviy talqini tahlil qilinib, ularning oilaviy hayot, shaxsiy rivojlanish va psixologik ta’siri o‘rganildi. So‘rovnama asosida olingan natijalar gender stereotiplarining jamiyatda hanuzgacha kuchli ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda erkaklar asosan oilaning moddiy ta’mintonchisi, ayollar esa uy ishlari va farzand tarbiyasiga mas’ul shaxs sifatida qabul qilinishi aniqlandi. Biroq, zamonaviy o‘zgarishlar natijasida gender rollariga bo‘lgan qarashlar asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Tadqiqot natijalariga asoslanib, gender tengligini rivojlantirish va oiladagi rollarni muvozanatlashdirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar Gender rollari, o‘zbek oilasi, an’anaviy qarashlar, psixologik ta’sir, shaxsiy rivojlanish, gender tengligi, oilaviy mas’uliyat, stereotiplar, zamonaviy o‘zgarishlar.

KIRISH

Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida oila har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbek milliy madaniyatida oila qadriyatlari va undagi ijtimoiy rollar, xususan, gender rollari avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’analar orqali shakllangan. Bu rollar o‘zbek oilasida nafaqat ijtimoiy, balki psixologik jihatdan ham ahamiyatlidir.

Gender rollari – bu jamiyat tomonidan erkaklar va ayollarga yuklatilgan vazifalar, mas’uliyatlar va kutilmalar tizimidir. O‘zbek oilalarida erkak ko‘pincha oilaning boshlig‘i va iqtisodiy ta’mintonchisi sifatida qaraladi, ayol esa uy ishlari, farzand tarbiyasi va oilaviy muhitni asrash mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Ushbu an’anaviy qarashlar zamonaviy davrda o‘zgarib borayotgan bo‘lsa-da, ular shaxsiy va oilaviy munosabatlarda muhim o‘rin tutishda davom etmoqda.

Mazkur tadqiqot o‘zbek oilalarida gender rollarining psixologik talqinini tahlil qilishga, ularning shaxs va jamiyat rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek oilasida gender rollarining an’anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarini o‘rganish va ularning psixologik xususiyatlarini aniqlashdir.

Gender – bu biologik jinsga asoslanmagan, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy va madaniy xususiyatlar tizimi bo‘lib, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Gender rollari esa jamiyatning erkak va ayolga nisbatan kutilmalarini aks ettiradi. Bu rollar madaniyatga, ijtimoiy qadriyatlarga va tarixiy sharoitlarga qarab farqlanadi.

O‘zbek oilalarida gender rollarini shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. An’analar va urf-odatlar: O‘zbek oilalarida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar erkak va ayollarga nisbatan aniq rol taqsimotini belgilab bergan. Masalan, erkakning

mas'uliyati oilani iqtisodiy ta'minlash bo'lsa, ayolning asosiy vazifasi uy-ro'zg'or ishlariga qaratilgan.

2. Diniy ta'sir: Islom dini o'zbek jamiyatida muhim o'rinni tutib, erkak va ayol uchun muayyan vazifalarni belgilaydi. Erkak oilaning yetakchisi va mas'ul shaxsi sifatida ko'riladi, ayol esa ko'proq oila va farzandlar tarbiyasiga yo'naltirilgan.

3. Ijtimoiy muhit: Mahalla va keng jamoatchilik o'zbek oilalarida gender rollarini nazorat qilishda muhim o'rinni tutadi. Mahalla a'zolari o'zlari tomonidan qabul qilingan an'analarga mos ravishda gender rollarini targ'ib qiladi.

4. Oila tarbiyasi: Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni katta. Erkak bolalariga erkaklik mas'uliyatlari, qizlarga esa uy ishlari va ayollik qadriyatlarini o'rgatadi.

Gender psixologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy gender rollari ko'pincha shaxsiy rivojlanish va gender tenglik masalalarida to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, jamiyatda ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini cheklovchi stereotiplar hanuz davom etmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy davrda gender rollari tobora o'zgarib borayotganini ko'rish mumkin, bu oiladagi psixologik muvozanatga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shu boisdan biz ijtimoiy tarmoqlar orqali "Ijtimoiy so'rovnoma" o'tkazdik. Tadqiqotda jami 150 dan ortiq respondent ishtirok etdi. Ularning 71,3% ayollar, 28,7% erkaklar tashkil etdi. Bu gender taqsimoti ayollarning mavzuga ko'proq qiziqish bildirganligini yoki ijtimoiy so'rovnomalarda faolroq ishtirok etishini ko'rsatishi mumkin.

Yosh toifasi bo'yicha taqsimot quyidagicha:

- 18-25 yosh – 58%
- 26-35 yosh – 17,3%
- 36-45 yosh – 14%
- 46 va undan katta yoshdagilar – 10,7%

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, so'rovda asosan yoshlarga yaqin yosh toifasi faol ishtirok etgan. Ayniqsa, 18-25 yoshdagi respondentlar ko'pchilikni tashkil qilgani sababli, ularning qarashlari gender rollari bo'yicha yangi tendensiyalarni aks ettirishi mumkin.

Oilaviy holat bo'yicha:

- 52,7% respondentlar turmush qurgan
- 40,7% nikohda emas
- 6% ajrashgan

Tadqiqotda oilali respondentlarning ko'pchilikni tashkil qilishi natijalarning real oilaviy hayot tajribasi asosida shakllanganligini anglatadi.

Farzandlar mavjudligi bo'yicha:

- 49,3% respondentlar farzandli
- 50,7% farzandsiz

Bu ma'lumotlar gender rollari haqidagi qarashlar qaysi guruhlarga tegishli ekanini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandli respondentlarning fikrlari ularning ota-onalik

tajribasi asosida shakllangan bo‘lishi mumkin, farzandsiz respondentlar esa gender rollariga nisbatan biroz erkinroq qarashlarga ega bo‘lish ehtimoli bor.

Tadqiqot natijalari gender rollarining o‘zbek oilasidagi an’anaviy talqini hali ham kuchli ekanligini ko‘rsatmoqda. Respondentlarning aksariyati erkak va ayolning oiladagi o‘rnini an’anaviy me’yirlarga mos tarzda qabul qiladi.

So‘rovnama natijalariga ko‘ra, respondentlarning 95,3% erkaklarni ijtimoiy va iqtisodiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak bo‘lgan shaxs deb hisoblaydi. Bu degani, erkak asosan oilani moddiy ta’minlovchi, tashqi ishlari va iqtisodiy qarorlar uchun mas’ul shaxs sifatida ko‘rilmoqda.

Faqatgina 4% respondentlar erkakning uy ishlari va farzand tarbiyasida faol ishtirok etishi lozimligini bildirdi. Bu natija an’anaviy gender qarashlari hanuzgacha jamiyatda chuqr ildiz otganini ko‘rsatadi.

Ayollar haqidagi qarashlar ham shunga yaqin bo‘lib, respondentlarning 84% ayolni uy ishlari va farzand tarbiyasiga mas’ul shaxs deb biladi. 12,7% respondentlar ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy mas’uliyat ham olishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu natijalar oiladagi gender rollari bo‘yicha o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bo‘lsa ham, ularning hali ham to‘liq qabul qilinmaganini anglatadi. O‘zbek oilasida ayollar asosan uy bekasi sifatida tasavvur qilinadi, lekin ularning iqtisodiy va jamiyatdagi faoliyati ham asta-sekin qabul qilinayotganini ko‘rish mumkin.

Gender rollarining oilaviy hayotga ta’siri borasida respondentlarning fikrlari quyidagicha taqsimlangan:

- 44% – Gender rollari ijobjiy ta’sir qiladi
- 24% – Gender rollari juda ijobjiy ta’sir qiladi
- 17,3% – Gender rollari salbiy ta’sir qiladi
- 14,7% – Gender rollarining hech qanday ta’siri yo‘q

Ya’ni, respondentlarning aksariyati an’anaviy gender rollari oilaviy hayotning barqarorligi va baxtiga ijobjiy ta’sir qiladi deb hisoblaydi. Shu bilan birga, taxminan 17% respondentlar gender rollari oilada muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlagan. Bu genderga asoslangan kutilmalar ba’zan ayollar yoki erkaklar uchun psixologik bosimni oshirishi mumkinligini bildiradi.

So‘rov ishtirokchilari gender rollarining o‘zgarishi borasida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- 54,7% – O‘zgarish bor, lekin juda sekin
- 33,3% – Ha, aniq o‘zgarishlar mavjud
- 10% – Hech qanday o‘zgarish yo‘q
- 2% – Gender rollari umuman o‘zgarmayapti

Bu natijalar shuni ko‘rsatadi, gender rollariga bo‘lgan qarashlar asta-sekin modernizatsiyalashmoqda, ammo bu jarayon juda sekin kechmoqda. Jamiyatda hali ham an’anaviy qarashlar ustunlik qiladi.

Gender rollarining o‘zbek oilasidagi an’anaviy talqini nafaqat oilaviy hayotga, balki oiladagi erkak va ayollarning psixologik holatiga ham ta’sir qiladi. Tadqiqot natijalari gender kutilmalari sababli erkaklar va ayollar turlicha psixologik bosim his qilishlarini ko‘rsatdi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 45,3% ayollar gender rollari tufayli biroz psixologik bosim his qilishlarini bildirgan. 21,3% respondentlar esa juda katta bosim mavjudligini ta’kidlagan.

Boshqa tomondan, 23,3% respondentlar bu bosimni sezmagani yoki buni aniq ayta olmagan, 10% esa umuman bosim yo‘qligini bildirgan.

Bu natijalar ayollar uy ishlari, farzand tarbiyasi va ijtimoiy stereotiplarga mos kelish majburiyati tufayli ma’lum darajada bosim ostida ekanligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ish bilan band bo‘lgan ayollar ikki tomonlama yuklama – uy va ish o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turish zarurati bilan duch kelishadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, erkaklar ham gender rollari sababli psixologik bosimni his qiladilar. Respondentlarning aksariyati erkaklarning asosiy ta’minotchi bo‘lishi shartligi haqidagi qarashlarni qo‘llab-quvvatlagan, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy majburiyatlarni oshiradi.

Erkaklarning uy ishlari yoki farzand tarbiyasiga qo‘shilishi masalasida esa:

- 44,7% respondentlar buni ijobiy baholagan,
- 37,3% qisman qo‘llab-quvvatlagan,
- 16% juda ijobiy qarash bildirgan,
- 2% esa salbiy munosabat bildirgan.

Bu natijalar shuni anglatadiki, gender rollarining o‘zgarishi bosqichma-bosqich amalgalashmoqda, lekin hali ham erkaklar uchun an’anaviy kutilmalar kuchli saqlanib qolgan. Erkaklar oilaviy mas’uliyatni faqat moddiy ta’minot bilan bog‘lab ko‘rishga majbur bo‘layotgani ularning ham psixologik bosim ostida qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Respondentlarning gender tengligiga erishish borasidagi qarashlari quyidagicha taqsimlangan:

- 76% – Ta’lim va ma’rifat orqali ongni o‘zgartirish
- 14% – Ayollarni ijtimoiy faollikka jalb qilish
- 10% – Erkaklarning uy ishlari va farzand tarbiyasidagi rolini oshirish

Bu natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati gender tengligini oshirish uchun ta’lim va ongni o‘zgartirish muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Gender stereotiplari ko‘pincha ijtimoiy va madaniy tarbiya natijasida shakllanadi, shu sababli jamiyatda ushbu mavzuda ta’lim, targ‘ibot va muhokamalarni oshirish gender tengligi yo‘lida muhim omil bo‘lishi mumkin.

Gender rollari faqat oilaviy hayot bilan cheklanmay, insonning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy o‘sishi va ijtimoiy faolligiga ham ta’sir qiladi. Tadqiqot natijalari gender rollari bo‘yicha an’anaviy qarashlar ba’zi hollarda individual rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Respondentlarning fikriga ko‘ra, gender rollarining shaxsiy rivojlanishga ta’siri quyidagicha taqsimlangan:

- 52,7% – Ijobiy ta’sir qiladi
- 19,3% – Salbiy ta’sir qiladi
- 18,7% – Hech qanday ta’sir qilmaydi

- 9,3% – Juda ijobjiy ta’sir qiladi

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning yarmidan ko‘pi an’anaviy gender rollari insonning shaxsiy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir qiladi deb hisoblaydi. Bu qarashga ko‘ra, erkaklarning oilani moddiy ta’minalashi va ayollarning farzand tarbiyasiga e’tibor qaratishi jamiyatning barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Biroq, taxminan 19% respondentlar gender stereotiplari shaxsiy rivojlanishga to‘sinqinlik qilishi mumkinligini bildirgan. Bu ayniqsa, ayollar uchun kasbiy o’sish va shaxsiy ambitsiyalarni amalga oshirishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ayollar faqat uy bekasi yoki ona sifatida ko‘riliishi, erkaklar esa moddiy ta’mintonchi bo‘lishi shartligi ularning boshqa sohalarda o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishlariga to‘sinqinlik qilishi mumkin.

Respondentlarning gender rollarining zamonaviy o‘zgarishlar bilan qanday transformatsiyalashayotgani haqidagi fikrlari quyidagicha taqsimlandi:

- 43,3% – Gender rollarida o‘zgarish bor, lekin oilaviy qadriyatlar saqlanadi
- 30,7% – O‘zgarishlar ko‘proq tenglik va erkinlikka olib keladi
- 13,3% – Gender rollarida o‘zgarishlar zarur emas
- 12,7% – O‘zgarishlar juda sekin kechmoqda

Bu natijalar gender rollari bo‘yicha an’anaviy qarashlar o‘zgarayotganini, lekin bu jarayon jamiyatga bog‘liq holda turlicha qabul qilinishini ko‘rsatadi. Respondentlarning 43% ijtimoiy o‘zgarishlar gender rollarini o‘zgartirayotgan bo‘lsa ham, oilaviy qadriyatlar saqlanib qolishini ta’kidlagan, bu esa an’anaviy oilaviy tuzumning jamiyatdagi ahamiyatini anglatadi.

Shu bilan birga, 30% respondentlar gender rollari o‘zgarishi ko‘proq tenglik va erkinlikka olib keladi deb hisoblaydi. Bu fikr ayniqsa, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishining ortib borayotganini anglatadi.

13% respondentlar esa gender rollarida hech qanday o‘zgarish zarur emasligini bildirgan, bu esa an’anaviy qarashlarga sodiq qolayotgan guruh mavjudligini ko‘rsatadi.

4. Xulosa va tavsiyalar

Ushbu tadqiqot gender rollarining o‘zbek oilasidagi an’anaviy talqinini tahlil qilish hamda ularning jamiyat, oilaviy hayot va shaxsiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish maqsadida o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gender rollari bo‘yicha an’anaviy qarashlar jamiyatda hali ham kuchli saqlanib qolgan, biroq zamonaviy o‘zgarishlar ta’sirida bu qarashlar asta-sekin o‘zgarib bormoqda.

Xulosa:

1. Gender rollarining an’anaviy talqini saqlanib qolmoqda.

Respondentlarning aksariyati erkaklarni oilaning moddiy ta’mintonchisi, ayollarni esa asosan uy ishlari va farzand tarbiyasi uchun mas’ul shaxs sifatida ko‘radi. Bu gender stereotiplarining hali ham kuchli ekanligini tasdiqlaydi.

2. Ayollar va erkaklar gender stereotiplari tufayli psixologik bosim his qilmoqda.

Ayollar ko‘pincha oilaviy majburiyat va kasbiy faoliyat o‘rtasida muvozanat topishga majbur bo‘lishadi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Erkaklar esa asosiy ta’mintonchi bo‘lish majburiyati tufayli iqtisodiy bosim ostida qolmoqda.

3. Gender rollarining o‘zgarishi bor, lekin sekin kechmoqda.

Respondentlarning yarmidan ko‘pi gender rollari o‘zgarayotganini tan oladi, lekin bu jarayon an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda amalga oshayotganini ta’kidlaydi.

4. Gender rollarining shaxsiy rivojlanishga ta’siri turlicha baholanmoqda.

Ba’zi respondentlar gender rollari insonning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilishini bildirgan bo‘lsa, boshqalar stereotiplar shaxsiy va kasbiy o‘sishga to‘sinqilik qilishi mumkinligini ta’kidlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

- Connell, R. W. (2005). Masculinities. University of California Press.
- Oakley, A. (1972). Sex, Gender and Society. Temple Smith.
- Raxmonov, B. (2021). O‘zbek oilasida an’anaviy gender rollari va zamonaviy o‘zgarishlar. Ijtimoiy fanlar instituti nashri.
 - Xasanova, G. (2020). Oila psixologiyasida gender yondashuvlar: muammo va yechimlar. Pedagogika va psixologiya jurnali.
 - O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). Gender tengligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.
 - BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). (2022). O‘zbekistonda gender tengligi va oilaviy qadriyatlar.